



**PNEVMONIYANI TASHXISLASHDA RENTGEN TEKSHIRUVI  
IMKONIYATLARINI BAHOLASH**

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

*Mirjalol Norqo‘ziyev*

*2-son davolash fakulteti 214-guruh talabasi*

*mnorqoziyev80@gmail.com*

**Dolzarbligi.**

Pneumonia dunyo bo‘yicha o‘limga olib keluvchi yetakchi yuqumli kasalliklardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili pnevmoniya tufayli taxminan 2,5 millionga yaqin odam vafot etadi, bu umumiy o‘lim holatlarining qariyb 4–5% ini tashkil etadi. 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida pnevmoniya barcha o‘lim holatlarining taxminan 14–15% iga sabab bo‘ladi va har yili 700–800 mingga yaqin bola hayotdan ko‘z yumadi. 65 yoshdan oshganlarda esa pnevmoniya bilan kasallanish va o‘lim darajasi keskin oshib, respirator kasalliklar ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

**Maqsad.**

Pnevmoniyani tashxislashda ko‘krak qafasi rentgenografiyasining diagnostik imkoniyatlarini baholash.

**Materiallar va usullar.**

Tadqiqotga klinik jihatdan pnevmoniya gumoni bo‘lgan 30 nafar bemor jalb qilindi. Barcha bemorlarda ikki proeksiyada (to‘g‘ri va yon) ko‘krak qafasi



rentgenografiyasi o'tkazildi. Tekshiruvlar raqamli rentgen apparati yordamida amalga oshirildi. Olingan tasvirlarda o'pka to'qimasida infiltrativ soyalar, segmentar yoki lobar zichlashishlar, interstitsial o'zgarishlar hamda plevral suyuqlik belgilari tahlil qilindi. Natijalar klinik va laborator ma'lumotlar bilan solishtirildi.

### **Natijalar.**

Tekshirilgan bemorlarning 21 nafarida (70%) rentgenologik jihatdan o'pka to'qimasida infiltratsiya o'choqlari aniqlandi. 6 nafar bemorda (20%) segmentar zichlashish, 3 nafar bemorda (10%) plevral reaksiya belgilari kuzatildi. Ayrim hollarda kasallikning dastlabki bosqichida rentgenologik o'zgarishlar aniqlanmadi, biroq 48–72 soatdan so'ng takroriy tekshiruvda infiltrativ soyalar namoyon bo'ldi.

### **Xulosa.**

Ko'krak qafasi rentgenografiyasi pnevmoniyani tashxislashda asosiy va keng qo'llaniladigan usul hisoblanadi. U kasallikning lokalizatsiyasi, tarqalishi va asoratlarini aniqlash imkonini beradi. Biroq dastlabki bosqichda rentgenologik o'zgarishlar kechikib paydo bo'lishi mumkinligi sababli, tashxis klinik va laborator ma'lumotlar bilan birgalikda baholanishi lozim.